O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-94, jarqurgon.t@exat.uz, www.jarqorgon.uz

2022 - yil 16 - noyabr 402-8-112-Q/22 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “Surxondaryo viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 566-8-0-Q/22-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi 522-sonli qarorining ijrosini hamda tumanning iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi “Surxondaryo viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turarjoy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 566-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Jarqo‘rg‘on tumanida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va

ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash ishlarining yig‘ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida ko‘p kvartirali turar joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash 3-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida sanitariya-gigienik uzellari talab darajasida bo‘lmagan ko‘p qavatli uylarning sanitariya-gigienik holatlarini yaxshilash bo‘yicha manzilli parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida ichimlik suv ta’minoti obyektlari va uskunalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash parametrlari 5-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida elektr tarmoqlari va qurilmalarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash parametrlari 6-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida gaz ta’minoti obyektlari va qurilmalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash parametrlari 7-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida kuz-qish mavsumida aholiga suyultirilgan gaz yetkazib berish parametrlari 8-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy soha obyektlarini mukammal va joriy ta’mirlash parametrlari 9-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari zahirasini yaratish parametrlari 10-ilovaga muvofiq;

Jarqo‘rg‘on tumanida ijtimoiy soha obyektlariga (tashkilot va korxonalar) kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari zahirasini yaratish parametrlari 11-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi 12-ilovaga muvofiq;

3. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov:

a) bir kun muddatda Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror

ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasini tashkil etsin;

b) hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar (keyingi o‘rinlarda - sektorlar) rahbarlari bilan birgalikda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan kompleks tadbirlarning hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash parametrlari o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin;

joylardagi uy-joy-kommunal xo‘jaligi infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiya obyektlarining holati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalariga tushgan murojaatlardan kelib chiqib 2022-yil 20-oktyabrga qadar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha tumanni “qizil”, “sariq” va “yashil” zonalarga ajratsin;

ijtimoiy soha obyektlarini, shu jumladan, maktabgacha ta’lim, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport obyektlarini kuz-qish mavsumidan talafotsiz o‘tkazish yuzasidan manzilli tadbirlarni belgilasin va ularning amalga oshirilishini ta’minlasin;

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moliyaviy holatini, aylanma mablag‘lardan foydalanish va hisob-kitob tizimini tahlil qilib, uni takomillashtirish va uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kreditorlik va debitorlik qarzdorligini qisqartirish choralarini ko‘rsin;

v) muhandislik-kommunikatsiya obyektlari va texnologik uskunalarni mavsumga tayyorlash hamda ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish davridan talafotsiz o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun joriy yilda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan zarur mablag‘lar ajratish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Raxmatov:

tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Ko‘p kvartirali turar joy fondini ta’mirlash jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tashkil etilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, Jamg‘arma mablag‘lari:

xalq deputatlari tuman Kengashi bilan kelishgan holda mahalliy

byudjetning qo‘shimcha manbalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi;

tuman hokimligi tomonidan har yili tasdiqlanadigan manzilli ro‘yxatga kiritilgan ko‘p kvartirali uylarni mukammal ta’mirlash maqsadida uy-joy mulkdorlari shirkatiga besh yilgacha muddatga foizsiz ssuda ajratish uchun sarflanadi.

5. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Jamg’arma mablag‘lari hisobidan ssudalar:

iqtisodiy nochor uy-joy mulkdorlari shirkati yoki boshqaruvchi tashkilotga mukammal ta’mirlanadigan ko‘p kvartirali uydagi uy-joy mulkdorlari umumiy yig‘ilishining ssuda mablag‘larini olish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lgan taqdirda ajratiladi;

tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, tegishli uy-joy mulkdorlari shirkati yoki boshqaruvchi tashkilot va ko‘p kvartirali uylarni mukammal ta’mirlash bo‘yicha buyurtmachi tashkilot o‘rtasida tuziladigan uch tomonlama shartnoma asosida buyurtmachi tashkilotning hisob varag‘iga o‘tkazib beriladi.

Bunda, ko‘p kvartirali uylarni mukammal ta’mirlash ishlarini tashkil etishda buyurtmachi tashkilotlar qonun doirasida tuman hokimligi tomonidan belgilanadi.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Raxmatov:

tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i G‘.Xo‘janov, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish bo‘limi bilan birgalikda 2022-yil 1-noyabrga qadar:

a) “Temir daftar”larga kiritilgan moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalar bilan alohida ishlash tizimini yaratsin. Bunda:

har bir sektor rahbari tomonidan sektor va mahallalar bo‘yicha kuz-qish “Temir daftari" shakllantirilishini;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini birinchi navbatda kuz-qish “Temir daftar”iga kiritilgan oilalarga ko‘mir, suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berishdan, oziq-ovqat zaxirasi yaratilishidan va bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta’minlashdan boshlashni nazarda tutsin.

b) “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan muhtoj oilalarni kuz-qish mavsumida zarur oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralari bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi hamda tuman Moliya bo‘limi bilan birgalikda bir oy muddatda 12-ilovaga muvofiq olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda sel kelishi oqibatida yo‘llar talafot ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloq (ovul)larda ko‘mir va suyultirilgan gaz va kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratsin.

8. Tuman shtabi (A.Aliyarov):

2022/2023-yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati yuzasidan har hafta muddatda yig‘ilish o‘tkazib, mas’ul tashkilot va korxonalarning hisobotlarini eshitib borsin;

har o‘n besh kunda viloyat shtabiga iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasidagi ishlar to‘g‘risida axborot kiritib borsin.

9. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi, tuman Moliya bo‘limi:

tumanda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davriga tayyorlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar manbalarini aniqlasin va ushbu chora-tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish choralarini ko‘rsin;

tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov va tumangaztaminoti korxonasi bilan birgalikda tuman aholisiga mo‘ljallangan suyultirilgan gaz narxi asossiz ravishda oshib ketishining oldini olish hamda uning iste’molchilarga maqbul va belgilangan narxlarda yetkazib berilishini ta’minlash yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

10. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari A.Radjabov bir hafta muddatda:

alohida ishchi guruh tuzgan holda tumanda, ayniqsa, qishloq aholi punktlarida ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasidagi ishlarning holatini o‘rgansin va aniqlangan kamchiliklarni

bartaraf etish yuzasidan tuman iqtisodiyoti tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasiga taklif kiritsin;

11. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limitumanda 2022/2023-yillar qish-bahor mavsumiga g‘amlanadigan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash joylari ro‘yxatini (dislokatsiyasini) tasdiqlasin hamda ularni g‘amlash parametrlarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov:

a) “Surxondaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorli jamiyati Jarqo‘rg‘on tuman filiali,G‘.Ergashev, “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi B.Musurmonqulov, “Ko‘mir ta’minot” MChJ tuman filiali:

tumanda, ayniqsa, tumanning olis va boorish qiyin bo‘lgan hududlarida aholini suyultirilgan gaz va ko‘mir yoqilg‘isi bilan o‘z vaqtida ta’minlash, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yoqilg‘I resurslarini uzluksiz yetkazib berish choralarini ko‘rsin;

hududdagi ijtimoiy soha obyektlari, ularga xizmat ko‘rsatuvchi qozonxonalar, suv inshootlari va nasos stantsiyalarini uzluksiz elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta’minlasin;

transformator podstantsiyalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash, aholiga zarur miqdorlarda tabiiy va suyultirilgan gaz yetkazib berish hamda joylarda ko‘mir mahsulotlarining g‘amlanishi bilan bog‘liq muammolarni o‘z vaqtida hal etish uchun tuman hududlarida muntazam ravishda aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazib borsin;

b) tarmoq korxonalari bilan birgalikda barcha toifadagi iste’molchilarga asosiy yoqilg‘i-energetika resurslari va ko‘mir mahsulotlarining o‘z vaqtida va ajratilgan resurs miqdorlari doirasida yetkazib berilishini ta’minlasin.

13. Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limiU.Pardayev:

Aloqador idoralar bilan birgalikda tumanda issiqlik ta’minoti sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish bo‘yicha takliflarni bir oy muddatda tuman hokimligiga kiritsin;

tumanda faoliyat ko‘rsatayotgan ta’mirlash-tiklash xizmati bilan shug‘illanuvchi korxonalarida ko‘p kvartirali uylarni boshqarish, aholiga santexnika xizmatlari va boshqa maishiy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha bir hafta muddatda “Tez kommunal xizmat” servislari faoliyatini tashkil etsin;

14. Quyidagilarga:

Tumandagi sektor rahbarlari va tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga – iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turarjoy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

Viloyat Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi huzuridagi Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspektsiyasidan ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish davriga tayyorlash, jumladan, ularni ta’mirlash va ichki muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini soz holatga keltirish bilan bog‘liq ishlarning sifatli tashkil etilishini nazorat qilish so‘ralsin;

viloyat Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspektsiyasidan ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv obyektlarini kuz-qish davriga tayyorlash ishlarining puxta va sifatli bajarilishi so‘ralsin;

viloyat Sanoat xavfsizligi hududiy boshqarmasidan ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish qozonlari va ularning issiqlik ta’minoti tizimini kuz-qish davriga tayyorlash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish ishlarining xavfsizligini belgilangan tartibda ta’minlash so‘ralsin;

“O‘zneftgazinspektsiya” Surxondaryo hududiy bo‘limi va “O‘zenergoinspektsiya” Surxondaryo hududiy bo‘limidan kuz-qish davrida aholi va ijtimoiy soha obyektlariga elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gazni uzluksiz yetkazib berish bo‘yicha belgilangan parametrlarning bajarilishini nazorat qilish so‘ralsin;

15. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Aliyarov:

Tumanda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan tuman iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat shtabiga kunlik ma’lumot taqdim

etib borsin;

har oyda sektorlar rahbarlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talofatsiz o‘tkazish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsin;

masalaga aloqador tuman tashkilotlari rahbarlari va tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari bo‘yicha Jarqo‘rg‘on gazetasida har oyda chopetilib borilishini ta’minlasin.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **B.A.O'raqov**

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
1-ilova

1-ILOVA

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, uy-joy fondi ijtimoiy soha obyektlarini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha KOMPLEKS ChORA-TADBIRLAR

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	
			Boshqarmalar, idoralar,korxona va tashkilotlar	Tuman hokimligi va aloqador tashkilotlar
I. Tashkiliy chora-tadbirlar				
1.	2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha tumanni “qizil”, “sariq” va “yashil” zonalarga ajratish. Bunda, aholi punktlarini “qizil” zonaga kiritishda elektr energiyasi va gaz ta’minotida muammolar mavjud, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moddiy-texnika bazasi va moliyaviy holati “og‘ir”, Xalq qabulxonasiga kommunal xizmatlar yuzasidan ko‘plab murojaatlar tushgan, shuningdek, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlar nazarda tutiladi.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman hokimligi, tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi , “Hududgaz Surhondayo” gaz ta’minoti Jarqo‘rg‘on tuman filiali.	A,Aliyarov U.Pardayev, G‘.Ergashev B.Musurmonqulov

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	
			Boshqarmalar, idoralar,korxona va tashkilotlar	Tuman hokimligi va aloqador tashkilotlar
2.	Tumandagi aholi yashash punktlarida: ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, shu jumladan, kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari hamda ijtimoiy soha ob’yektlarining issiqlik ta’minoti qozonxonalari, muhandislik-kommunikatsiya ob’yektlari va jihozlarini ta’mirlash; aholiga suyultirilgan gazni (ovqat pishirish uchun) uzluksiz yetkazib berish, ularni ko‘mir va ko‘mir briketlari, shuningdek, chekka hududlarda yashovchi aholini ichimlik suvning muqobil manbalari (shu jumladan, tashib keltiriladigan suv) bilan ta’minlash bo‘yicha mas’ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman hokimligi ,тuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi , “Hududgaz Surhondayo” gaz ta’minoti tuman filiali, “Ko‘mir ta’minot” MChJ tuman filiali.	A,Aliyarov U.Pardayev, G‘.Ergashev B.Musurmonqulov, B.Qambarov
3.	Moddiyyordamvako‘makkamuhtojoilalarro‘yxatlari “Temirdaftar”ga kiritilganaholibilanalohidaishlashtiziminiyaratish. Bunda: harbirsektorrahbaritomonidansektorvamahallalarbo‘yichakuz-qish “Temirdaftar”inishakllantirish; kuz-qishmavsumigatayyorgarliknibirinchinavbatdakuz-qish “Temirdaftar”igakiritilganoilalardanboshlashvaularga ko‘mir, suyultirilgan gaz yetkazib berish, ushbu oilalarni oziq-ovqat zaxirasi va bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta’minlash ishlarini amalga oshirish.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman hokimligi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi, “Hududgaz Surhondayo” gaz ta’minoti tuman filiali, “Surxondaryo suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali, “Ko‘mir ta’minot” MChJ tuman filiali.	Sektorlar rahbarlari, A,Aliyarov, G‘.Ergashev, B.Musurmonqulov, O.Sattorov, B.Qambarov
4.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2022/2023 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan neft va neft mahsulotlari, gaz kondensati, suyultirilgan gaz, ko‘mir, shu jumladan ko‘mir briketlari, texnik tuz va boshqa yuklarni yetkazib berish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman hokimligi “Hududgaz Surhondayo” gaz ta’minoti tuman filiali, “Surxondaryo suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali, “Ko‘mir ta’minot” MChJ tuman filiali	A,Aliyarov, B.Musurmonqulov, O.Sattorov, B.Qambarov
5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda 2022-yil oktabr oyidan 2023-yil aprel oyiga qadar bo‘lgan davr mobaynida ulgurji iste’molchilar va aholiga tabiiy gaz yetkazib berish bo‘yicha kelishilgan oylik jadvalni ishlab chiqish va amalga oshirish.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi, “Hududgaz Surhondayo” gaz ta’minoti tuman filiali bilan birgalikda	I.O‘taganov B.Musurmonqulov

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
			Boshqarmalar, idoralar,korxona va tashkilotlar	Tuman hokimligi va aloqador tashkilotlar
II. Yoqilg'i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar				
6.	Asosiy va yirik muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda texnologik uskunalarni mukammal va joriy ta'mirlash, jumladan: "Hududgazta'minot" AJ tuman filialining 120 ta gaz taqsimlash punktlarini taftishdan o'tkazish, 6.72 km. quvurlarni bosim ostida sinash va tozalash, hamda 14.8 km gaz quvurlarini bo'yash. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tuman elektr tarmoqlari korxonasining 106,4 km. past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 39 ta transformator punktini mukammal hamda 145.7 km. past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 70 ta transformator punktini joriy ta'mirlash;	Qaror qabul qilingan kundan boshlab.	Tuman hokimligi, tuman elektr tarmoqlari korxonasi, "Hududgaz Surhondayo" gaz ta'minoti tuman filiali	A,Aliyarov, G'.Ergashev, B.Musurmonqulov
7.	Kuz-qish davrida qozonxonalarning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida soha tashkilotlari tomonidan zarur suyuq va qattiq yoqilg'i zaxirasini yaratish.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi, Hududgaz Surhondayo" gaz ta'minoti tuman filiali, "Ko'mir ta'minot" MChJ tuman filiali,	A,Aliyarov, B.Musurmonqulov, B.Qambarov
8.	Aholi, ijtimoiysohaobyektlarivaiqtisodiyottarmoqlarining 3 ming 61,7 tonna ko'mirgabo'lgantalabinito'liqqanoatlantirish, jumladan: aholiehtiyojlariuchun 700 tonna; ijtimoiysohatashkilotlariga 2 ming 361,7tonna;	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi, туman Iqtisodiy taraqqiyotva kambag'allikni qisqartirish bo'limi, "Ko'mir ta'minot" MChJ tuman filiali	A,Aliyarov, B.Musurmonqulov, B.Qambarov
9.	Shakllantirilgan ro'yxatlar asosida kuz-qish davrida tabiiy gaz ta'minotining tanqisligi kutilayotgan aholi punktlariga tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida 3572 tonna, jumladan, joriy yil oktabr-dekabr oylarida 1786 tonna suyultirilgan gazni kafolatlangan tarzda yetkazib berish.	2022-yil 1-oktabrdan 2023-yil 1-aprelga qadar	Tumanhokimligi, HududgazSurhondayo" gazta'minotifiliali,	A,Aliyarov, B.Musurmonqulov

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
			Boshqarmalar, idoralar,korxona va tashkilotlar	Tuman hokimligi va aloqador tashkilotlar
III. Ko‘p kvartirali turar joy fondini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar				
10.	Tumandagi **ko‘pkvartirali turar joy fondini ta'mirlash ishlarining manzilli ro‘yxatini** ishlab chiqish. Bunda haqiqiy ehtiyojni hisobga olgan holda joriy yilda moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar va uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan **kreditlarning aniq miqdorlarini belgilash**.	2022-yil 1-noyabrga qadar	Tuman hokimligi, тuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi , tijorat banklari	A,Aliyarov, U.Pardayev
11.	Ko‘p kvartirali turar joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun: zarur chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash; uy-joy mulkdorlari shirkatlarining muammoli qarzdorligini to‘liq qaytarish grafigini tasdiqlash; uy-joy mulkdorlari shirkatlarining muammoli qarzdorligini grafikka asosan to‘liq qaytarish choralarini ko‘rish.	2022-yil 1-noyabrga qadar yil davomida	Tuman hokimligi,tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi , tijorat banklari	A,Aliyarov, U.Pardayev
12.	Mahalliy byudjet, bank kreditlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan 2 ta ko‘p kvartirali uyningfasadqismini ta'mirlash, ko‘p kvartirali uylarningtutashhududidan4taumumfoydalanishdagixojatxonalarqurish. 5 tako‘p kvartirali uylarning troturlarini betonlash.	2022-yil 1-dekabrga qadar	Tuman hokimligi ,tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi , tijorat banklari tuman Moliya bo‘limi	A,Aliyarov, U.Pardayev, A.Abdusalomov
13.	Ko‘p kvartirali uylar, bino va inshootlarning yong‘inga qarshi xavfsizlik texnik me'yorlariga mosligi holatini tekshirib, ko‘p kvartirali uylardagi dudbo‘ronlarni va ventilyatsiya tizimlarini ta'mirlash, izolyatsiya qilish va tozalash ishlarini amalga oshirish.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi, tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, “Hududgaz Surhondayo” gaz ta'minoti tuman filialibilan birgalikda,	A,Aliyarov, U.Pardayev, B.Musurmonqulov
14.	Iste'molchilarni ishonchli va xavfsiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida ko‘p kvartirali uylarda elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishi holatini o‘rganish va tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan birgalikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi, tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi ,tuman elektr tarmoqlari korxonasi .	G‘.Ergashev,U.Pardayev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
			Boshqarmalar, idoralar,korxona va tashkilotlar	Tuman hokimligi va aloqador tashkilotlar
IV. Ijtimoiy soha ob'yektlarini barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar				
15.	Ijtimoiy soha ob'yektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish. Jumladan: Tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 3 ta umum ta'lim maktabini joriy ta'mirlash; Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rish.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi ,tuman Moliya bo'limi, tuman Xalq ta'limi bo'limi, tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi,	A,Radjabov, A.Abdusalomov Ch.Jumayev, B.Dexqonova
16.	Koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha tashkil qilingan maxsus shifoxonalar va vaqtinchalik karantinda saqlash majmualarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi, tuman Moliya bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi	A,Radjabov, A.Abdusalomov, P.Sagizov
17.	Byudjet tashkilotlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun zarur byudjet mablag'larini joriy yilning III choragida ajratish. Jumladan: ijtimoiy soha ob'yektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun tuman mahalliy byudjetlaridan belgilangan mablag'larningo'z vaqtida ajratilishini ta'minlash; ijtimoiy soha ob'yektlariga ko'mir sotib olish uchun birinchi ajratilgan mablag'larni moliyalashtirilishini ta'minlash. Shuningdek, ijtimoiy soha ob'yektlariga qo'shimcha talab qilinadigan ko'mir xarajatlarini bozor narxlarida qoplab berish choralarini ko'rish.	2022-yil 20-oktabrga qadar 2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi , tuman Moliya bo'limi	A.Raxmatov, A.Abdusalomov
VI. 2022/2023-yillarqish-bahormavsumiuchunasosiyturdagiqishloqxo'jaligi mahsulotlarini g'amlash bo'yicha chora-tadbirlar				
18.	Moliyaviy ahvoli barqaror bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga bank kreditlari o'z vaqtida ajratilishini va ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlash.	doimiy ravishda	Tuman hokimligi ,tuman Moliya bo'limi, tijorat banklari	A.Karimov, A.Abdusalomov,
19.	"Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan muhtoj oilalarni kuz-qish mavsumi uchun zarur oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralari bilan ta'minlash.	2022-yil 20-oktabrga qadar	Tuman hokimligi ,tuman Moliya bo'limi, tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi	A.Raxmatov, A.Abdusalomov G'.Xo'janov

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
2-ilova

2-ILOVA

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali turar joy fondini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash ishlarining YIG'MA PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	Uy-joy fondini ta’mir-lash, (birlik)	Issiqlik ta’minoti			Ichimlik suv ta’minoti		Elektr ta’minoti			Gaz ta’minoti			Ijtimoiy soha ob’yekt-larini ta’mir-lash, (birlik)	Ko'mir mahsu-lotlari zahirasini yaratish, (ming tonna)
			Qozon-xonalar, (birlik)	Qozon-lar, (birlik)	Issiqlik tarmoq-lari, (km)	Ichim-lik suv tarmoq-lari, (km)	Nasos uskuna-lari, (birlik)	Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punkt-lari, (birlik)	Yirik energo-quril-malar (IES va Uzgidro-energo) (birlik)	Gaz quvur-larini tiklash, (km)	Gaz taq-simlash punkt-larini ta’mir-lash, (birlik)	Etkazib berila-digan suyulti-rilgan gaz, (tonna)		
1.	Jarqo‘rg‘on tumani					2.3	6	252.1	109	x	0	1	3572	3	3061,7

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
3-ilova

3-ILOVA

"Tumanda ko‘p kvartirali turar joy fondini mukammal va joriy ta’mirlash
PARAMETRLARI"

T/r	Hududlar nomi	Jami ta’mir-lashga muhtoj ko‘p kvartirali uylar soni *(birlik)*	Mukammal ta’mirlash										Joriy ta’mirlash	
			Mukammal ta’mirga muhtoj uylar soni *(birlik)*	Ish turlari									Joriy ta’mirga muhtoj uylar soni *(birlik)*	Tom qismini ta’mir-lash, (m2)
				Tom qismini ta’mir-lash	Kirish yulak-larini ta’mir-lash *(yo‘lak soni)*	Framuga plastik romlarni ta’mir-lash	Kodli qulfli temir eshiklar o‘rnatish (birlik)	Ichki muhan-dislik tarmoq-larini ta’mir-lash *(birlik)*	Issiqlik tik quvur-larini ta’mir-lash	Ko‘p kvarti-rali uylar fasad qismini ta’mir-lash *(birlik)*	Irri-gatsiya tarmoq-larini ta’mir-lash	Uy oldi yo‘laklari qopla-masini ta’mir-lash		
				(m2)		*(m2)*			*(p/m)*		*(p/m)*	*(m2)*		
1.	Jarqo‘rg‘on tumani			2			6			2	355	5		

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
4-ilova

4-ILOVA

tumanda sanitariya-gigienik uzellari talab darajasida bo‘lmagan ko‘p qavatli uylarning sanitariya-gigienik holatlarini yaxshilash bo‘yicha manzilli
PARAMETRLARI

№	Hududlar	Ko‘p kvartirali uy-joylar soni, *birlik*	Mavjud tashqi xojat-xonalari soni, *birlik*	Shundan talabga javob bermaydigan va tartibga keltiriladi-ganlari soni, birlik	*Shundan*			*Shundan*			Umumiy qiymati, *mln.so‘m*	shundan moliyalashtirish manbasi bo‘yicha	
					Yangidan quriladigan xojatxona-lar soni	Yangidan quriladigan xojatxona-larning ochkolar soni	Talab etiladigan mablag‘ (mln.so‘m)	Ta’mir-lanadigan xojatxona-lar soni	Ta’mir-lanadigan xojatxona-larning ochkolar soni	Talab etiladigan mablag‘ (mln.so‘m)		Respublika byudjeti	Mahalliy byudjet
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	106	29	4	4	16	242					121	121

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
5-ilova

5-ILOVA

Tumanda ichimlik suv ta’minoti obyektlari va uskunalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	JAMI		Mukammal ta’mirlash		Joriy ta’mirlash	
		Ichimlik suv tarmoqlari, (km)	Nasos uskunalari, (birlik)	Ichimlik suv tarmoqlari, (km)	Nasos uskunalari, (birlik)	Ichimlik suv tarmoqlari, (km)	Nasos uskunalari, (birlik)
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	2.3	6	1.3	2	1	4

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
6-ilova

6-ILOVA

Tumanda elektr tarmoqlari va qurilmalarini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	JAMI		Mukammal ta’mirlash				Joriy ta’mirlash			
				Yuqori kuchlanishli		Past kuchlanishli		Yuqori kuchlanishli		Past kuchlanishli	
		Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punkt-lari, (birlik)	Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punktlari, (birlik)	Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punktlari, (birlik)	Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punktlari, (birlik)	Elektr uzatish tarmoq-lari, (km)	Trans-formator punktlari, (birlik)
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	252.1	100			106.4	39			145.7	70

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
7-ilova

7-ILOVA

Tumanda gaz ta’minoti ob’yektlari va qurilmalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	Jami gaz quvur-larini tiklash-ta’mirlash ishlari, (km)	Shundan		Gaz taqsimlash punkt-larini mukammal ta’mirlash, (birlik)	Gaz taqsimlash punkt-larini taftish qilish, (birlik)	Gaz quvur-larini bosim ostida sinash va tozalash, (km)	Er osti gaz quvur-larining holatini tekshirish, (km)	Gaz quvur-larini bo‘yash, (km)
			Gaz quvur-larini mukammal ta’mirlash, (km)	Gaz quvur-larini rekonst-ruktsiya qilish, (km)					
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	**0**			1	120	6.72	6.72	14.8

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
8-ilova

8-ILOVA

Tumanda kuz-qish mavsumida aholiga suyultirilgan gaz yetkazib berish PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY soni, (ming nafar)	Iste’-molchilar soni, (ming nafar)	Etkazib beriladigan suyultirilgan gaz hajmi, (tonna)	shundan:					
					2022 yilda			2023 yilda		
					oktyabr	noyabr	dekabr	yanvar	fevral	mart
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	63	44	3572	577	599	610	610	599	577

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
9-ilova

9-ILOVA

Tumanda ijtimoiy soha obyektlarini mukammal va joriy ta’mirlash
PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	Jami ijtimoiy soha ob’yekt-lari, (birlik)	Mukammal ta’mirlash, jumladan:								Joriy ta’mirlash, jumladan:						
			Maktab-lar, (birlik)	Bolalar uylari va maktab-inter-natlar, (birlik)	Bog’cha-lar, (birlik)	Shifo-xonalar, polikli-nikalar (birlik)	Sahovat, Muruvvat uylari va pansio-natlar (birlik)	Oliy ta’lim muassa-salari, (birlik)	Mada-niyat ob’yekt-lari, (birlik)	Sport ob’yekt-lari, (birlik)	Maktab-lar, (birlik)	Bolalar uylari va maktab-inter-natlar, (birlik)	Bog’cha-lar, (birlik)	Shifo-xonalar, polikli-nikalar (birlik)	Sahovat, Muruvvat uylari va pansio-natlar (birlik)	Oliy ta’lim muassa-salari, (birlik)	Sport ob’yekt-lari, (birlik)
1.	Jarqo‘rg‘on tumani	3									3						

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
10-ilova

10-ILOVA

Tumanda kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari zahirasini yaratish PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	Ko‘mir mahsulotlari uchun talab, (ming tonna)			Shundan, yo‘nalishlar kesimida										Ko‘mir mahsulotini yetkazib beruvchi korxonalar
					Ijtimoiy soha obyektlari			G’isht korxonalari va issiqxonalar			Aholi				
		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan		MFY soni	Jami miqdori	shundan		
			ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket			ko‘mir	ko‘mir briket	
1	Jarqo‘rg‘on tumani	**3061**	3061	0	**2361**	2361	0	**0**	0	0	60		700	0	"O‘zbekko‘mir" AJ qoshidagi "Ko‘mir ta'minot" MChJ

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
11-ilova

11-ILOVA

Tumanda ijtimoiy soha ob’yektlariga (tashkilotlarlar kesimida) kuz-qish mavsumi uchun ko‘mir mahsulotlari zahirasini yaratish PARAMETRLARI

T/r	Shahar va tuman nomi	Jami ijtimoiy soha ob’yektlari uchun talab, (ming tonna)			Shundan, tashkilotlar kesimida																	
					Xalq ta’limi boshqarmasi			Maktabgacha ta’lim boshqarmasi			Sog’liqni saqlash boshqarmasi			Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari			Madaniyat bo‘limi			Turizm va sport boshqarmasi		
		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan		Jami	shundan	
			ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket		ko‘mir	ko‘mir briket
1	Jarqo‘rg‘on tumani	2361.7	2361.7	0	1214	1214	0	471.7	471.7	0	411	411	0	0	0	0	15	15	0	29	29	0

Jarqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
402-8-112-Q/22-son qaroriga
12-ilova

12-ILOVA

Tumanda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruh

TARKIBI

1.	A.Aliyarov	- Tuman hokimi orinbosari, **ishchi guruh rahbari**
2.	U.Pardayev	- Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i
3.	B.Musurmonqulov	- “Hududgaz Surxondaryo” MChJ Jarqo‘rg‘on tuman filiali boshlig‘i
4.	G‘.Ergashev	- tuman elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i
5.	B.Qambarov	- “Ko‘mir ta’minot” MChJ tuman filiali.
6	O.Sattarov	- tuman “Suvta’minoti” korxonasi boshlig‘i
7.	Lavozimiga ko‘ra	- tumandagi barcha aloqador tashkilot va korxonalar